

PAPER

# KO‘ZI OJIZ VA ZAIF KO‘RUVCHI O‘QUVCHILARNI MAQSADLI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH

Yuldasheva Dilbarxon Turgunovna<sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>Qo‘qon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi

\*dibarhonuldasheva9@gmail.com

## Abstract

Ushbu maqolada rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham sog‘lom tengdoshlari bilan birdek harakat qilib, kelajakda hayotda o‘z o‘rinlarini topishga harakat qilmoqdalar. Bu bilan imkoniyati cheklangan bolalarning ham o‘z tengqurlari kabi kasb-hunar egallashga bo‘lgan qiziqishlari ortib bormoqda bu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni kasb-hunarga yo‘naltirish, hayotda o‘z yo‘lini topishga yordam berish, natijada kelajakda bandlik muammolarini ham hal qilish imkoniyatlari yoritilgan bo‘lib ko‘zi ojiz hamda zaif ko‘rvuchi o‘quvchilarni kelajakka tayyorlash, kasb-hunar o‘rgatish fundamentlarini yaratish masalalari muhokama etiladi.

**Key words:** Ko‘zi ojiz o‘quvchilar; kasb-hunar; metod; maqsadli ta‘lim; metod.

## Kirish

Bola rivojlanishidagi nuqsonlar har xil bo‘ladi, ularning ba‘zilari batamom bartaraf etiladi, ba‘zilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, bilinmaydigan holga keltiriladi, boshqalari esa kompensatsiyalanadi. Masalan, bola nutqida og‘ir nuqson bo‘lsa, ilk yoshda to‘g‘ri tashkil etilgan logopedik chora-tadbirlar ta‘sirida uni to‘liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson markaziy nerv sistemasidagi organik kamchiliklar natijasida paydo bo‘lgan bo‘lsa (masalan, aqli zaiflik shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to‘liq bartaraf etib bo‘lmasa ham, biroq kamaytirish, ko‘zga ko‘rinmaydigan, sezilmaydigan darajagacha tuzatish mumkin. Maxsus pedagogika amaliyotida yana shunday toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar kuzatiladi, ulardagи nuqsonni tuzatish ham, korreksiyalab ham bo‘lmaydi, masalan, tug‘ma ko‘rlik yoki karlikning ayrim turlari shular jumlasidadir. Bunda ko‘rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko‘rish analizatoriga yuklash, ya‘ni kompensatsiyalash, o‘rnini bosish mumkin

## Adabiyotlar tahlili

Hozirgi kunda o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda pedagogik-psixologik va umumtexnik va kasb ta‘limi mu-

taxassilari olib borayotgan ishlар salmoqli o‘ringa egaligi ma‘lum. Darhaqiqat, o‘quvchi yoshlarning kasbiy bilimlar va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularga to‘g‘ri yo‘nalish berish ishlari ko‘proq kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassislar, pedagog-psixologlar zimmasisiga tushadi. Shu munosabat bilan o‘quvchilarni kasbhunarga yo‘naltirishga mas‘ul mutaxasislarning quyidagi pedagogik-psixologik va umumkasbiy tayyorgarligiga ega bo‘lishi va kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari qo‘yilgan talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

## Tadqiqot metodologiyasi

Tiflopsixologiyada ikki turlicha yo‘nalgan jarayon – ko‘rishda nuqsoni bo‘lganlarni nisbatan chuqr differensiatsiyalash: total ko‘zi ojiz; yorug‘likni his qiladigan ko‘zi ojiz; qoldiqli ko‘rishga ega ko‘zi ojiz; chuqr zaif ko‘rvuchi; zaif ko‘rvuchi. Bu tendensiylar ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixologik tavsifiga ta‘sir o‘tkazadi, ko‘rish patologiyasi turli shakllarining bolalarning psixik rivojlanishiga ta‘sir darajasi va kuchini, shuningdek, yakka tartibda ishlaganda va maxsus korreksiyalash mashg‘ulotlarida ularni kompensatsiyalash imkoniyatlarini belgilaydi. Ko‘rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablari ko‘ra tug‘ma va ortitirilgan bo‘ladi. Tug‘ma nuqsonlar sabablari orasida irlsiy kasalliklar (masalan, tug‘ma kataraktaning ba‘zi shakllari va boshqalar),

xomilador ayolning toksoplazmoz, qizilcha kasalliklari bilan o'rishi, xomila ko'rish organlarining embrional rivojlanish paytda zararlanishi, miya o'smasi va shu kabi kasalliklar katta rol o'ynaydi.

## Tahillilar va natijalar

Ko'rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Tug'ma nuqsonlar sababları orasida irsiy kasalliklar (masalan, tug'ma kataraktaning ba'zi shakllari va boshqalar), xomilador ayolning toksoplazmoz, qizilcha kasalliklari bilan og'rishi, xomila ko'rish organlarining embrional rivojlanish paytda zararlanishi, miya o'smasi va shu kabi kasalliklar katta rol o'ynaydi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ko'ruv o'tkirligiga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1. Total ko'rlar - ko'rish o'tkirligi 0. 2.

2. Qisman ko'rlar. Ko'rish o'tkirligi 0, 05 gacha. Mashg'ulotlarda ular asosan o'quv materialini sezish, eshitish idroki asosida o'zlashtiradilar. Brayl tizimi bo'yicha o'qiydi va yozadilar. Ba'zi bir bolalar saqlangan ko'rish imkoniyatidan o'qish va yozishda foydalanimishlari mumkin.

Zaif ko'rurvchilar ko'rish o'tkirligiga ko'ra quyidagicha turga bo'linadi

1. Ko'ruv o'tkirligi 0, 05dan 0, 1 gacha

2. Ko'ruv o'tkirligi 0, 1dan 0, 2 gacha

3. Ko'ruv o'tkirligi 0, 2 dan yuqori 0, 4 gacha.

Ko'rish o'tkirligi pastligi bilan bir qatorda ayrim bolalarda ko'rish maydoni toraygan, fazoviy idrok buzilgan bo'lishi ham mumkin. (Ko'rish o'tkirligi 0,1 bo'lgan bolalar). Bularning bar-chasi o'quv materialini idrok etish, o'zlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zaif ko'rurvchi bolalar maxsus sharoitda, maxsus usul, uskunalar, texnik va optik vositalar yordamida o'qitilishi maqsadga muvofiqdir. Ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ko'ruv idrokini rivojlanishiga alohida ahamiyat beriladi. Ko'rishdagi nuqsonlar bolaning ruxiy, jismoniy rivojlanishida ikkilamchi nuqsonlar kelib chiqishiga olib keladi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalarning ta'limi va tarbiyasini tashkil etishni o'rganuvchi ilmiy ta'limotlarni o'rganuvchi fan tiflopedagogika fani hisoblanadi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunarga o'rgatish, ularda kasbiy ko'nikmalarni shakkantirish, axborot texnologiyalari, kompyuterda dasturlash amaliyoti, umumta'lim fanlari va xorijiy tillarni o'rgatish, shuningdek, zarur hollarda yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun; Kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish, tadbirkorlik va kasbhunarga o'rgatish kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan hamda maxsus sertifikatni olgan, shuningdek, tadbirkor yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tganlarga asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish uchun. Belgilansinki, subsidiyalar har bir nogironligi bo'lgan yoshning talabiga muvofiq, bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha bo'lgan miqdorda mazkur bandda ko'rsatilgan yo'nalishlardan bittasi uchun ajratiladi." kabi ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari ko'zi ojiz yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratib, bu borada bir nechta qarorlar imzoladilar. Jumladan, 18.04.2022 yildagi "Ko'zi ojiz va zaif ko'rurvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-209-sonli qarorida: "Ichki ishlar vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligining ko'zi ojiz va zaif ko'rurvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni Ichki ishlar vazirligiga biriktrish hamda ularni "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari (keyingi o'rnlarda — "Nurli maskan" matablari) deb nomlash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin deb belgilab berilgan.

## Xulosa

Xulosa o'rniда shuni aytish joizzki, Imkoniyati cheklangan, shu jumladan, ko'zi ojiz insonlar jamiyatning ajralmas bir bo'lagi sifatida insoniyat tomonidan tan olinishi, e'tibor ko'rsatilishi va ko'mak berilishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki, Ijtimoiy tengsizlik jamiyat va davlatning taraqqiy etishiga jiddiy to'siq bo'la oladi. Imkoniyati cheklangan insonlarning boqimandaligiga barham berib, ularni ilm fanga, kasbga yo'naltirish orqali jamiyatga foyda keltirishlariga erishish g'oyat rivojlangan davlatlarga xos bo'lgan jihatlaridan biridir.

## Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 03.08.2017 yildagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdag'i ma'ruzasi [www.president.uz](http://www.president.uz)
2. ORQ-641-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi", 8-modda, 21.12.2020, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. PQ-57, 5-bandi, 21.12.2021, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. PQ-209-sonli "Ko'zi ojiz va zaif ko'rurvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab internatlarda ta'lim berish sifatini os-hirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 1-bandi, 18.04.2022, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. Student, Special Pedagogy Speech Therapy. "THE IMPORTANCE OF USING FAIRY TALE THERAPY IN PRIMARY CLASSES OF SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS Turdaliyeva Munavvara Ixtiyorjon qizi."
6. Umarova, Saboxon Minavvarovna, Boltaboyeva Durdona, and Umarova Rukhshonakhan. "IMPACT OF INCLUSIVE PHYSICAL EDUCATION ON SOCIAL DEVELOPMENT OF DISABLED STUDENTS." Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research 11.11 (2024): 331-333.
7. Madinaxon, Maxmudova, and Shokirova Nargiza. "Bola nutqining normal rivojlanishida nutq faoliyatining fiziologik ahamiyati." Conferencea 12.12 (2023): 359-365.